

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 15 550,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 6,3 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 113,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,4 % ga yetdi.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida Samarqand viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

|  | Mlrd. so'm      |                 | O'sish<br>sur'atlari,<br>o'tgan yilning<br>mos davriga<br>nisbatan % da |
|--|-----------------|-----------------|---|
|  | 2023- yil       | 2024- yil       |   |
| <b>I. YAHM, jami</b>                                   | <b>12 854,1</b> | <b>15 550,7</b> | <b>106,3</b>  |
| <i>shu jumladan:</i>                                   |                 |                 |   |
| tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati              | 12 494,0        | 15 226,7        | 106,2   |
| mahsulotlarga sof soliqlar                             | 360,1           | 324,0           | 107,1   |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b>  | <b>12 494,0</b> | <b>15 226,7</b> | <b>106,2</b>  |
| <b>qishloq, o'rmon<br/>va baliqchilik xo'jaligi</b>    | <b>2 901,1</b>  | <b>3 316,2</b>  | <b>103,4</b>  |
| <b>sanoat<br/>(qurilishni qo'shgan holda)</b>          | <b>3 018,8</b>  | <b>3 566,0</b>  | <b>107,0</b>  |
| sanoat   | 2 289,2         | 2 753,2         | 106,3   |
| qurilish   | 729,6           | 812,8           | 109,3   |
| <b>xizmatlar</b>                                       | <b>6 574,1</b>  | <b>8 344,5</b>  | <b>107,1</b>  |
| savdo, yashash va<br>ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar | 1 108,6         | 1 341,5         | 110,7   |
| tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa                | 1 066,5         | 1 371,6         | 113,6   |
| boshqa xizmat tarmoqlari                               | 4 399,0         | 5 631,4         | 104,7   |

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 686,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,0 % ga yuqoridir.

**2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**  
*(ming so'mda)*



**2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari**  
*(o'tgan yilga nisbatan % hisobida)*



## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

|   | 2023- yil    | 2024- yil    |
|---|--------------|--------------|
| <b>I. YAHM, jami</b>                              | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| <i>shu jumladan:</i>                              |              |              |
| tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati            | 97,2         | 97,9         |
| mahsulotlarga sof soliqlar                        | 2,8          | 2,1          |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| <b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>   | <b>23,2</b>  | <b>21,8</b>  |
| <b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>         | <b>24,1</b>  | <b>23,4</b>  |
| sanoat  | 18,3         | 18,1         |
| qurilish  | 5,8          | 5,3          |
| <b>xizmatlar</b>                                  | <b>52,7</b>  | <b>54,8</b>  |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  | 8,9          | 8,8          |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa              | 8,5          | 9,0          |
| boshqa xizmat tarmoqlari                          | 35,3         | 37,0         |



2024- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 21,8 % ni, sanoat tarmog‘i 18,1 % ni, qurilish 5,3 % ni va xizmatlar sohasi 54,8 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,8 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,1 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,6 f.p. (2023- yilda – 1,4 f.p.) ijobiy (salbiy) hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 21,8 %), sanoatda – 106,3 % (18,1 %), qurilishda – 109,3 % (5,3 %), xizmatlar sohasida – 107,1 % ni (54,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,7 % (8,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,6 % (9,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,7 % dan (37,0 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 113,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 118,5 % va sanoatda – 113,1 % qayd etildi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)





2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 10 385,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 8 416,5 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 68,2 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 67,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.

## Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2023- yil

8 416,5

67,4 %

2024- yil

10 385,7

68,2 %

